# MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL




№7-SON

2025-YIL, IYUL

9710 xalqaro daraja

№240874

ISSN: 3060-4621

Google Scholar
OpenAIRE
zenodo
ORCID
OPEN ACCESS

2025-YIL
IYUL
№ 7-SON

# Marketing

## ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

*ELEKTRON NASHR. 31 IYUL, 2025-YIL*

### JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

### ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64
VEB-SAYT
www.marketingjournal.uz
ELEKTRON POCHTA:
info@marketingjournal.uz
TELEGRAM BOT:
@marketinjournalbot
TELEGRAM KANAL:
https://t.me/tdiumarketingjournal

### MUASSIS

"Tadbirkor va ishbilarmon" MCHJ

### JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

### INDEKSATSIYA

Google Scholar
ORCID
OPEN ACCESS
OpenAIRE
zenodo

### BOSH MUHARRIR
Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;
### BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

### TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasi mudiri;
Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasi professori;
Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasi professori;
Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasi mudiri,Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;
Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori,Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi
Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasi professori;
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasi professori;
Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori;
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;
Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasi dotsenti;
Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;
Musyeva Shoira Azimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasi professori;
Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasi dotsenti;
Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasi dotsenti;
Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchisi;
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasi dotsenti;
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasi professori
Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti
Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasi mudiri
Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasi mudiri
Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasi professori
Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekani professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasi mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD , TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasi v.b.dotsenti;
Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;
Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasi dotsenti;

Elektron nashr 372 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 31-iyulda ruxsat etildi

# MUNDARIJA

**ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОВЕДЕНИЯ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ С ПОМОЩЬЮ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ СРЕДСТВ ........ 6**
**Икрамов Мурат Акрамович, Юлдашев Жамшид Абрарович**

**KOMPANIYALAR EKOMARKETING STRATEGIYASIDA “YASHIL” BRENDING TENDENSIYALARI ........ 13**
**Sa’dulloyev Habibullo Ibodullo o‘g‘li**

**МАРКЕТИНГОВЫЙ ПОДХОД К РЕШЕНИЮ ЗАДАЧ УСТОЙЧИВОГО УПРАВЛЕНИЯ БИЗНЕСОМ ........ 21**
**Ренкер Клеменс, Багиев Георгий Леонидович, Икрамов Мурат Акрамович**

**XORAZM VILOYATIDA SANOATNING TARKIBIY TUZILISHI VA UNING DINAMIKASI TAHLILI ........ 29**
**Ibragimov Jaxongir Baxodirovich**

**O‘ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGI YUQORI BO‘LGAN HUDUDLARIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI ........ 36**
**Astanov Sherzod Rustamovich**

**HALOL STANDARTLARINING MAZMUN-MOHIYATI, ASOSIY TALABLARI VA IJTIMOIY-IQTISODIY TUSHUNCHALARI ........ 45**
**Azizova Saodat Xabibulloyevna**

**QURITILGAN MEVALAR EKSPORTIDA MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI ........ 56**
**Yunusov Baxodir Marisovich**

**KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHGA YO‘NALTIRILGAN STRATEGIK MARKETING YONDSHAUVLARI ........ 64**
**Xidirov Sherzod Olimovich**

**BIZNES JARAYONLARNING LOGISTIKA AUTSORSINGI ........ 70**
**Uzaqov Ortik Shaymardanovich**

**O‘ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDA YASHIL MOLIYALASHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI ........ 78**
**Oripov Ilhom Abdullayevich**

**NAMANGAN VILOYATIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH ........ 90**
**Inamov Farhodjon Ikrom o‘g‘li**

**“YASHIL” SANOAT SIYOSATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 97**
**Ismatulloyeva Madinabonu Fozil qizi**

**TIJORAT BANKLARI FAKTORING XIZMATLARI ASOSIDA KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI ........ 108**
**Jalilov Azizbek Baxodir o‘g‘li**

**MINTAQAVIY IJTIMOIY-IQTISODIY TIZIMDA SAMARADORLIK VA SIFATNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI ........ 117**
**Jumanov Sherzod Norboyevich**

**OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MAQSADLI AUDITORIYANI ANIQLASHDA SUNIY INTELLEKT VOSITALARI VA ULARDA MARKETING STRATEGIYALARINI QO‘LLASH ........ 126**
**Maxmudov Faxriddin Umarovich**

ELEKTRON TIJORATDA TESKARI LOGISTIKANING INNOVATSION MODELLARINI QO‘LLASH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO‘LLARI ........................................ 134
Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o‘g‘li
MINTAQADA QURILISH ISHLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI ........................................ 150
Jumanov Sherzod Norboyevich
FROM PARTNERSHIP TO STRATEGIC ALLIANCE: MAPPING FUTURE COLLABORATION BETWEEN INDIA AND UZBEKISTAN ........................................ 159
Abror Kucharov, Jyoti Meshram
OLIY TA’LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........................................ 167
Alimardonov Asrorjon Alimardonovich
ZIYORAT TURIZMI BO‘YICHA XALQARO TAJRIBALAR VA ULARDAN O‘ZBEKISTON TURIZMINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI ........................................ 176
Salomov Temurbek Boburmirzo o‘g‘li
O‘ZBEKISTON AGROSANOAT ZANJIRLARIDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMLARINI JORIY ETISHGA TASHQI MUHIT OMILLARI TA’SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH ...... 180
Djumayev Asror Almamatovich
TRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONSEPTSIYASI ........................................ 190
Ergasheva Muxabbat Abdusamatovna
SOG‘LIQNI SAQLASH TA’LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI ........................................ 198
Jonibekov Jasurbek Jonibekovich
IMPROVING THE EFFICIENCY OF LOGISTICS SERVICES IN FREE ECONOMIC ZONES. STRATEGIC CONCEPT ON THE EXAMPLE OF JIZZAK FEZ ........................................ 204
Mukhiddinov Muminjon Shavkiddin ugli
SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISHNING TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASASALARI TA’LIM SIFATIGA TA’SIRI........................................ 213
Nazarova Fotima Xakimovna, Jonibekov Jasurbek Jonibekovich
MAKROIQTISODIYOTDA ISTE’MOL TALABI NAZARIYASI VA UNING MARKETING TADQIQOTLARIDA QO‘LLANILISHI........................................ 219
Rustamov Narzillo Istamovich
O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGIDA MOLIYAVIY TAHDIDLARNI BOSHQARISHDA BILIMLAR DARAJASINING ROLI ........................................ 227
Sadibaqosov Suxrob Toshpo‘lot o‘g‘li
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSION OMILLARNING TA’SIRINI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI ........................................ 235
Sapayeva Fazilat Norbayevna
MODALAR BIZNESIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI241
Ziyayeva Shahlo Shoakbar qizi, Yuldasheva Dilorom Shaxzod qizi
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAYENS NAZORAT TIZIMINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI........................................ 248
Tuychiyev Alisher Jurayevich, Kurbanbayeva Zuxra Abduraxmon qizi
СТИМУЛИРОВАНИЕ ЭКСПОРТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ........................................ 257
Матлюбов Хуршид Жамшидович

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ........ 266
**Самединов Тимур**

OLIY TA'LIM MUASSASALARINI RAQAMLASHTIRISH JARAYONIDA BIG DATA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABA FIKRLARINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI OPTIMALLASHTIRISH ........ 279
**Akbarov Nodir Gafurovich**

BANK XIZMATLARI MARKETINGIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASHNING INNOVATSION IMKONIYATLARI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI........ 287
**Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich**

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH INNOVATSION YONDASHUVLAR VA INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV METODOLOGIYASI........ 295
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi**

KORXONALARDA RAQOBAT RAZVEDKASI TIZIMIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN METODOLOGIK YONDASHUVLARNI RIVOJLANTIRISH ........ 304
**Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li**

ZIYORAT TURIZMI BO'YICHA XALQARO TAJRIBALAR VA ULARDAN O'ZBEKISTON TURIZMINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI ........ 311
**Salomov Temurbek Boburmirzo o'g'li**

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MODDIY OQIMNI BOSHQARISHDA LOGISTIKA XIZMATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-TASHKILIY MEXANIZMI ........ 315
**Maxmidov Shirinboy Botirovich**

UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNING NAZARIY MASALALARI ........ 322
**Gozieva Mokhira Rustamovna**

YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH ........ 330
**Turobjanov Murodjon Maxammadjanovich**

BOJXONA TIZIMIDA TRANSPORT LOGISTIKASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI ........ 335
**Kucharov Abror Sabirjanovich, Alijanova Komila Toxir kizi**

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BYUDJETLASHTIRISHDAN FOYDALANGAN HOLDA BOSHQARUV TIZIMINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI........ 344
**Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich**

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI MARKETINGDA SUN'IY INTELLEKT ........ 352
**Sadikov Shoxrux Shuxratovich**

AVTOMOBIL SANOATIDA EKSPORT HAJMINI OSHIRISHDA XALQARO MARKETING STRATEGIYASI AHAMIYATI........ 358
**Akramov Tohir Abdirahmonovich**

MINTAQALAR INVESTITSION SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI ........ 364
**Qobilov Anvar Eshpo'lotovich**

# ZIYORAT TURIZMI BO'YICHA XALQARO TAJRIBALAR VA ULARDAN O'ZBEKISTON TURIZMINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

**Salomov Temurbek Boburmirzo o'g'li**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti doktoranti
E-mail: timurbek.sam1995@gmail.com

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada ziyorat turizmi sohasidagi xalqaro tajribalar tahlil qilinib, ularni O'zbekistonda ushbu turizmni rivojlantirish strategiyasiga moslashtirish imkoniyatlari o'rganiladi. Marokash, Indoneziya, Turkiya, Malayziya va Qozog'istondagi muvaffaqiyatli tajribalar asosida milliy yo'nalishlar shakllantirish taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** ziyorat turizmi, sufiy merosi, xalqaro tajriba, infratuzilma, turizm strategiyasi, diniy meros, tafakkur sayyohligi.

**Аннотация**

В статье рассматриваются международные практики в сфере паломнического туризма и возможности их адаптации для развития туризма в Узбекистане. Анализируются успешные примеры из Марокко, Индонезии, Турции, Малайзии и Казахстана.

**Ключевые слова:** паломнический туризм, суфийское наследие, международный опыт, инфраструктура, стратегия туризма, религиозное наследие, духовный туризм.

**Abstract**

This article explores international practices in pilgrimage tourism and examines how they can be adapted to Uzbekistan's tourism development strategy. Successful models from Morocco, Indonesia, Turkey, Malaysia, and Kazakhstan are analyzed as potential frameworks for a national concept.

**Keywords:** pilgrimage tourism, Sufi heritage, international experience, infrastructure, tourism strategy, religious heritage, spiritual tourism.

## KIRISH

Ziyorat turizmi so'nggi yillarda jahon turizm industriyasida barqaror rivojlanayotgan sohalardan biriga aylandi. BMTning Butunjahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra[1], har yili millionlab ziyoratchilar muqaddas joylarga tashrif buyurishmoqda. Ushbu turizm faqat diniy ehtiyojlarni emas, balki madaniy, ma'rifiy va iqtisodiy jarayonlarni ham qamrab oladi. O'zbekistonda islom madaniyatining ilk markazlaridan biri sifatida ziyorat turizmini rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Buxoro, Samarqand, Termiz kabi shaharlarimizda joylashgan

[1] https://www.travelandtourworld.com/news/article

sufiy ulamolar maqbaralari xalqaro ahamiyatga ega boʻlib, ularni toʻgʻri tashkil etish orqali sayyohlarni jalb qilish mumkin. Oʻzbekistonda Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Imom Termiziy, Shoh Zinda, Imom Moturidiy kabi muqaddas joylar bor[1]. Bu joylar nafaqat islom dinining rivojiga hissa qoʻshgan, balki butun musulmon olamida tan olingan ilm va ma'rifat markazlaridir. Ammo ziyorat turizmini xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil etish, unga innovatsion yondashuvlarni joriy etish, marketing va logistika tizimini takomillashtirish talab etiladi.

Xalqaro tajribalarni tahlil qilish orqali milliy modelni yaratish dolzarb vazifalardan biridir. Oʻzbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish bilan bogʻliq masalalar mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmogʻi sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Oʻzbekistonda ilk bora oʻtkazilgan birinchi xalqaro ziyorat turizmi forumi Oʻzbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi tomonidan, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari boʻyicha qoʻmita, Oʻzbekiston musulmonlari idorasi, «Vaqf» xayriya jamoat fondi, Tashqi ishlar vazirligi, Buxoro viloyati hokimiyati, Ta'lim, fan va madaniyat masalalari boʻyicha Islom tashkiloti (ISESCO) hamda Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) koʻmagida tashkil etildi. Tadbirda dunyoning 30 dan ortiq davlatidan 120 dan ziyod vakillar ishtirok etdi. Turizm qoʻmitasi qoshidagi «Milliy PR-markaz» hamda «Global Muslim Traveler Index» doirasida «MATTA» (Malayziya), «Crescent Rating» (Singapur) assotsiatsiyalari, Jakarta targʻibot fondi (Indoneziya) oʻrtasida hamkorlik Memorandumi imzolandi[2]. Bu harakatlar shuni koʻrsatadiki chet el tajribasini oʻrganish va uni tatbiq qilishga hukumat darajasida e'tibor berilmoqda.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Qator xalqaro va mahalliy tadqiqotlar ziyorat turizmini rivojlantirish boʻyicha muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Jumladan, Smit J. (2021) tomonidan yozilgan "Diniy turizm xizmatlarini rivojlantirish: global nuqtai nazar" nomli maqolasida ziyorat turizmining xalqaro bozordagi ahamiyati, xizmatlar sifatini oshirish va turistik tajriba yaratish borasidagi strategiyalar yoritilgan. Muallif ta'kidlashicha, zamonaviy ziyoratchi nafaqat diniy ehtiyoj, balki ta'lim, madaniyat va ruhiy boyishni ham izlaydi. Undan tashqari, Karimov A. (2022) "Markaziy Osiyodagi sufiylik yoʻnalishlari: Oʻzbekiston uchun imkoniyatlar" nomli tadqiqotida, mintaqadagi sufiy merosning turizm bilan integratsiyasi orqali iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari tahlil etilgan. Muallif sufiy yoʻnalishlar asosida maxsus turistik marshrutlar yaratishni taklif etadi. Bu borada YUNESKO (2018) tomonidan nashr etilgan "Meros va turizm: musulmon dunyosida ziyorat yoʻnalishlari" nomli hisobotda esa ziyorat yoʻnalishlari va ularning madaniy, iqtisodiy ta'siri batafsil yoritilgan. Xususan, turizm va diniy meros obyektlarini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va interaktiv vositalarni joriy etish muhimligi ta'kidlangan.

---

[1] Sagdullayev A.S., Xolmatov N.Oʻ., Abdullayev Oʻ.I. Markaziy Osiyoda tarixiy – madaniy viloyatlarning shakllanishi va etnik geografiyasi muammolari. – Toshkent: Universitet, 2020. – B.162-163.

[2]"A. DadamuHamedov. Oʻzbekiston zièrat turizmida informatsion kommunikatsiya texnologiyalarining oʻrni" nomli maqolasi,Islom ziyosi jurnali, 1-son 2019-yil

**1-jadval.**

**Xorij amaliyoti va uning ahamiyati[1]**

| Mamlakat | Tajriba mazmuni | O‘zbekiston uchun ahamiyati |
|---|---|---|
| Marokash | Sidiy Ahmad Tijoniy ziyorat va ta’lim markazi sifatida | Ziyoratni ta’lim va madaniyat bilan integratsiya qilish |
| Indoneziya | Umra bilan birga madaniy turlar | Ko‘p funksionalli turizmni rivojlantirish |
| Qozog‘iston | Hoja Ahmad Yassaviy maqbarasi atrofida | Ziyorat turizmida xizmatlar kompleksini yaratish |
| Turkiya | Mavlono Rumiy maqbarasi turistik brend sifatida | Sufiy merosni marketing orqali jahonga chiqarish |
| Malayziya | Islom sivilizatsiyasi muzeyi | Interaktiv ekspozitsiya va ta’limiy turizm rivoji |

## METODOLOGIYA

Maqoladagi tahlillar qiyosiy yondashuv, keys-stadi va modellashtirish usullari asosida olib borilgan. Shuningdek, statistik ma’lumotlar va amaliyotdagi misollar tahlili orqali xulosalar qilindi. Intervyu, kontent tahlili, qonuniy-me’yoriy hujjatlar tahlili va zamonaviy bozor talablariga muvofiq metodlardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mutaxassislar, ziyoratchilar yoki turistik tashkilotlar vakillari bilan qilingan Intervyu natijalari shuni ko‘rsatadiki, Turistlar uchun ma’rifat markazlari va tafakkur media-kitobxonalari juda ham zarur. Undan tashqari, Sufiy musiqasi va ma’naviy madaniyatga bag‘ishlangan xalqaro festivallar o‘tkazish lozimligi ham ta’kidlandi. Kontent tahlili esa AR/VR texnologiyalar bilan tajriba-sayyohat platformasi va Sifroviy gaydlar, mobil ilovalar, multimedia targ‘ibot materiallari bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. “Sufi Heritage Trails” — Samarqand, Buxoro, Termiz va Navoiyni qamrab olgan maxsus marshrutni O‘zbekistonda ziyorat turizmiga oid qonunlar va hujjatlariga muvofiq yo‘lga qo‘yish lozim. Misol uchun, "O‘zbekiston Respublikasida Turizm faoliyati to‘g‘risida"gi Qonun, Prezident farmonlari yoki Vazirlar Mahkamasining qarorlari tahlil qilinishi kerak. Statistik tahlillarga murojaat qilinadigan bo‘lsa Davlat statistika qo‘mitasi va Turizm va madaniy meros vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda O‘zbekistonga tashrif buyurgan ziyoratchilar soni 6,2 million nafarni tashkil etdi. Shundan taxminan 35 foizini (2,17 mln) diniy yoki ma’naviy turizm maqsadida kelganlar tashkil qilgan. Eng ko‘p ziyoratchilar Qozog‘iston (28%), Rossiya (17%), Turkiya (12%), Indoneziya va Malayziyadan (8%) qayd etilgan. Buxoro viloyatida joylashgan Bahouddin Naqshband majmuasiga 2023-yilda 750 ming turist tashrif buyurgan, shundan 230 ming nafarini xorijlik ziyoratchilar tashkil etgan[2] va undan

---

[1] Maqolaning muallif tomonidan tuzilgan
[2] https://www.gazeta.uz/uz/2024/02/21/tourists/

oldingi yillar statistikasini ham tahlili shuni ko‘rsatadiki bu ko‘rsatkichlar ya’ni turistlar soni yanada o‘sib borishi kutilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ziyorat turizmini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi O‘zbekiston uchun muhim manba hisoblanadi. Bundan kelib chiqib, quyidagi takliflar beriladi:

- Sufiy merosga asoslangan milliy brend yaratish va uni xalqaro darajada ommalashtirish.
- Xalqaro tadbirlar va ilmiy forumlarda faol ishtirok etish, ilmiy maqolalar chop etish.
- Ziyorat turizm obyektlarini modernizatsiya qilish, servis sifatini xalqaro standartlarga muvofiq ravishda oshirish.
- Ta’lim turizmi va ziyorat turizmini birlashtirish.
- Marketing strategiyasi ishlab chiqish va internet platformalarda ilg‘or targ‘ibot.
- Xususiy sektorni keng jalb qilish va investitsiyaviy muhitni yaxshilash.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Smit J. (2021). Diniy turizm xizmatlarini rivojlantirish: global nuqtai nazar. Xalqaro diniy turizm jurnali, 10(2), 25–40.
2. Karimov A. (2022). Markaziy Osiyodagi sufiylik yo‘nalishlari: O‘zbekiston uchun imkoniyatlar. Turizm va madaniyat sharhi, 8(1), 55–68.
3. Alami M. (2020). Marokashda ruhiy turizm. Afrika turizm jurnali, 12(3), 100–117.
4. Yusupov R. (2019). O‘zbekistonda ziyorat turizmi: muammolar va istiqbollar. O‘zbekiston turizm jurnali, 5(2), 30–45.
5. Setiavan D. (2021). Indoneziyada umra va madaniy turizmni integratsiya qilish. Osiyo-tinch okeani turizm jurnali, 13(1), 77–91.
6. Niyazmetov B. (2023). O‘zbekistonda meros turizmini rivojlantirish. "Servis" jurnali, (1), 45–58.
7. Nurmatova S. (2022). Islomiy merosni hududiy turizm vositasi sifatida qo‘llash. Turizmda zamonaviy tadqiqotlar, 6(4), 89–103.
8. YUNESKO. (2018). Meros va turizm: musulmon dunyosida ziyorat yo‘nalishlari. Parij: YUNESKO nashriyoti, 12–38.
9. Karabashov T. (2021). Turizm ma’naviy markazlarni rivojlantirish omili sifatida. Islom madaniyati, (3), 60–74.
10. Kochkarov I. (2020). Sufizm va Markaziy Osiyoning ruhiy yo‘nalishlari. Xalqaro islom sivilizatsiyasi jurnali, (2), 88–101.
11. Sagdullayev A.S., Xolmatov N.O‘., Abdullayev O‘.I. Markaziy Osiyoda tarixiy – madaniy viloyatlarning shakllanishi va etnik geografiyasi muammolari. – Toshkent: Universitet, 2020. – B.162-163.
12. “A. DadamuHamedov. O‘zbekiston zièrat turizmida informatsion kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni” nomli maqolasi,Islom ziyosi jurnali, 1-son 2019-yil.

# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

| | |
|---|---|
| **Muharrir:** | Xakimov Ziyodulla Axmadovich |
| **Ingliz tili muharriri**: | Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich |
| **Rus tili muharriri**: | Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o‘g‘li |
| **Musahhih**: | Karimova Shirin Zoxid qizi |
| **Sahifalovchi va dizaynerlar**: | Sadikov Shoxrux Shuxratovich |
| | Abidjonov Nodirbek Odijon o‘g‘li |

**2025-yil, iyul, 7-son**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Marketing” ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.


Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin.
Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.


Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: @marketinjournalbot
Tel.: +998977838464, +998939266610


Jurnalning rasmiy sayti: https://marketingjournal.uz


Marketing jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**“Marketing” ilmiy, amaliy va ommabop jurnali** 2024-yil 15-martdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**

“Marketing” ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710.** GOST 7.56-2002 "Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**